TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.12.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAYEV BEGALI XUDOYMURODOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “HAYOT” VA “O‘LIM” MAZMUNLI FRAZEMALARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

UO‘K: **811.111'373.7 +811.512.133'373.7**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Jumayev Begali Xudoymurodovich
Ingliz va o‘zbek tillarida “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalarning chog‘ishtirma tahlili 3

Jumayev Begali Khudoymurodovich
Contrastive Analysis of Phraseological Units Meaning “Life” and “Death” in English and Uzbek..... 23

Жумаев Бегали Худаймуродович
Сопоставительный анализ фразеологических единиц со значением “жизнь” и “смерть” в английском и узбекском языках 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 47

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.12.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAYEV BEGALI XUDOYMURODOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “HAYOT” VA “O‘LIM” MAZMUNLI FRAZEMALARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2025.4.PhD/Fil6803 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) ilmiy kengash veb-sahifasining www.tersu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xo‘janova Ozoda Tojiyevna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Oybek Saparboyevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Cho‘ponov Otanazar Otajonovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 03/2025.27.12.Fil.12.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-dekabr kuni soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43. Tel.: +998 76 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 454 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43. Tel.: +998 76 221-74-55)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “23” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “23” noyabr dagi № 22-raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.T. Maxmaraimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.B. Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

P.U. Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik, pragmatik, lingvomadaniy va kommunikativ xususiyatlarini aniqlash hamda turli tillardagi muqobillarini belgilash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ingliz va o‘zbek tillaridagi hayot va o‘lim mazmunli frazemalarning izohli hamda tarjima lug‘atlarida bir xil darajada yoritilmaganligi, ularning nutqiy qo‘llanish chastotasi bo‘yicha ma’lumotlarning cheklanganligi, hududiy va uslubiy variantlarning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi, avtomatik tarjima jarayonida ko‘chma ma’noli birliklarning tarkibiy qismlari alohida tarjima qilinishi natijasida frazemaning yaxlit semantik mazmuni, emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i va milliy-madaniy xususiyatini, ularning ekvivalentlik darajasini, kontekstual mosligini va tarjima strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Shunga ko‘ra, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot natijalaridan ikki tilli va ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar tuzish, badiiy asarlarni tarjima qilish, til o‘rganuvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish, elektron tarjima tizimlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida inson tafakkuri, milliy madaniyat va lisoniy ong o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tadqiq etish doirasida frazeologik birliklarning semantik, kognitiv, lingvomadaniy hamda pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, insoniyat mavjudligining fundamental ontologik kategoriyalari hisoblangan “hayot” va “o‘lim” tushunchalarining turli tillar frazeologik tizimida voqelanishi, ularning universal va milliy-madaniy belgilarini aniqlash, mazkur tushunchalar bilan bog‘liq obrazli tafakkur mexanizmlarini ochib berish zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu boisdan, frazeologik birliklarning semantik ekvivalentligi, qisman muqobilligi va milliy-madaniy jihatdan muqobilsizligi bilan bog‘liq masalalarni aniqlash qiyosiy frazeologiyaning nazariy asoslarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy korpus lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish orqali frazemalarning qo‘llanish chastotasi, kollokatsion xususiyatlari, diskursiv faolligi va kontekstual variantlarini aniqlash, an’anaviy semantik tahlil natijalarini miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda tilshunoslik fanini rivojlantirish, o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini chuqur tadqiq etish, uning boy leksik va frazeologik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda xorijiy tillar bilan chog‘ishtirma o‘rganish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida frazeologik birliklarning semantik, kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy va aksiologik xususiyatlarini tadqiq etish, ular orqali xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi, urf-odatlari, diniy-falsafiy qarashlari hamda qadriyatlar tizimini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada insoniyat mavjudligining asosiy ontologik kategoriyalari hisoblangan “hayot” va “o‘lim” tushunchalarini ifodalovchi frazeologik birliklarning lisoniy tabiatini ochib berish, ularning ikki til tizimidagi umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, semantik tuzilishi hamda

kommunikativ vazifalarini chog‘ishtirma asosda o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalardagi zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish va ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda[1]. Binobarin, frazemalarning semantik-kognitiv, struktur, lingvomadaniy, aksiologik hamda funksional-pragmatik jihatdan kompleks chog‘ishtirma tadqiq etish, ularning universal va milliy-madaniy belgilarini aniqlash, mavjud ilmiy yondashuvlarni integratsiyalashgan metodologiya asosida takomillashtirish hamda olingan natijalarni tarjimashunoslik, leksikografiya, lingvodidaktika va kompyuter lingvistikasi amaliyotiga tatbiq etish mamlakatimiz zamonaviy tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tog‘risida”gi Qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh. Balli, N.I. Amosova, M.T. Tagiyev, N.M. Shanskiy, N.I. Chernishyeva, A.V. Kunin, V.V. Vinogradov, V.M. Mokiyenko, Aldiabani Aref Ali Salax, A. Granja[2] kabi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 21 oktabrdagi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019. – 22 oktabr

[2] Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1962. – 392 с. Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1963. – 227 с. Тагиев М. Т. Глагольная фразеология современного русского языка. – Баку: Маариф, 1966. – 150 с. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1969. – 315 с. Чернишева Н.И.Фразеология современного немецкого языка. – Москва, 1970. – 200 с. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва, 1972. – 288 с. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – 267 с. Мокиенко В.М. Славянская фразеология – Москва, 1980. – 207 с. Алдиабани Ареф Али Салах. Фразеологические единицы, выражающие интеллектуальные способности человека в английском и русском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 199 с. Granja Á. María

olimlarning xizmatlari katta.

Ingliz tilshunosligida N.R. Norrick, Ya. Kamakura, A. Dabrowska[3] kabi G‘arb olimlarining ilmiy tadqiqotlari frazeologik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

O‘zbek olimlaridan Sh. Rahmatullayev, Y.D. Pinxasov, M. Umarxodjayev, H. Berdiyorov, B. Yo‘ldoshev, A.E. Mamatov, P.U. Bakirov, B.M. Jo‘rayeva, M. Sodiqova, Q.M. Hakimov, Sh.R. Usmonova, M.K. Xalikova, A. Mamatov, K. Bozorboyev, O. Cho‘ponov, Z. Narmuratov, N. Mamataliyeva, Sh. Kayumova Sh. Abdullayev, Sh. Almamatova, M. Vafoyeva, Z. Jumayeva[4] singari tilshunos olimlar o‘zbek frazeologiyasining rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni boshqa tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda o‘rganish va ularning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish keng tus olgan. Bu jihatdan L. Kuliyeva, I. Stepanova, Y. Arsenteva, I.N. Isabekov, G.I. Ergasheva, M.A. Radjabova, O‘. Xudoynazarova, S. Abdullayeva, R. Sapayeva[5] kabi tilshunos olimlarning qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar doirasida olib borgan tadqiqotlari ahamiyatlidir.

(ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. -Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008.-382 p.

[3] Тарасенко В.В. Концепты “жизнь” и “смерть” в системе языка и сознании разноязычных носителей (на материале фразеологизмов)”. Дисс. ... канд. филол. наук. Кемерово. 2008 – 160 с. Кузнецова Н. В. Словообразовательные структуры ядерных лексем концепта “жизнь” (на материале английских и русских народных сказок. Дисс. ... канд. филол. Москва, 2010. – 172 с. Воробьева С. В. Репрезентация концептосферы everydaylife в английской лингвокультуре позднего средневековья. Дисс. ... канд. филол. Наук. Волгоград. 2012 – 182 с. Середа Е. Представление концепта “death” в английской фразеологической картине мира. Дисс.. канд. филол. Наук. Санкт-Петербург. 2016 – 184 с. Шарышова Н. В. Когнитивно-метафорическая репрезентация концептуальных структур Life/Жизнь и Death/Смерть в поэтическом дискурсе (на материале поэзии Дилана Томаса и Сильвии Плат). Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2020. – 192 с. Karimova D. Sh. Turli tizimli tillarda “o‘lim” kontseptining lingvokulturologik xususiyatlari va gender tadqiqi. Filol. fanlari falsafa d-ri… diss. Andijon, 2023. – 129 b.

[4] Тарасенко В.В. Концепты “жизнь” и “смерть” в системе языка и сознании разноязычных носителей (на материале фразеологизмов)”. Дисс. ... канд. филол. наук. Кемерово. 2008 – 160 с. Кузнецова Н. В. Словообразовательные структуры ядерных лексем концепта “жизнь” (на материале английских и русских народных сказок. Дисс. ... канд. филол. Москва, 2010. – 172 с. Воробьева С. В. Репрезентация концептосферы everydaylife в английской лингвокультуре позднего средневековья. Дисс. ... канд. филол. Наук. Волгоград. 2012 – 182 с. Середа Е. Представление концепта “death” в английской фразеологической картине мира. Дисс.. канд. филол. Наук. Санкт-Петербург. 2016 – 184 с. Шарышова Н. В. Когнитивно-метафорическая репрезентация концептуальных структур Life/Жизнь и Death/Смерть в поэтическом дискурсе (на материале поэзии Дилана Томаса и Сильвии Плат). Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2020. – 192 с. Karimova D. Sh. Turli tizimli tillarda “o‘lim” kontseptining lingvokulturologik xususiyatlari va gender tadqiqi. Filol. fanlari falsafa d-ri… diss. Andijon, 2023. – 129 b.

[5] Кулиева Л. Принципы фразеологизации в русском и английском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Баку, 2004. – 26 с. Степанова И. Английские фразеологические единицы с флористическим компонентом (в сопоставление русском языком): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Киев, 1987. – 24 с. Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц выражающих характер человека в английском и русском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 16 с. Исабеков И.Н. Фразеологизмы и проблемы их перевода (на материале кыргизского и русского языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Бишкек, 2004. – 24 с. Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремия ларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари номзоди дисс. Тошкент, 2011. – 164 б. Раджабова. М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (Инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро, 2020. – 160 б. Худойназарова Ў.А. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. –147 б. Абдуллаева С.Б. Инсонни характерлашда зооним компонентли фразеологик бирликлардаги лингвопрагматик хусусиятлар (Инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2022. – 148 б. Сапаева Р. Б. Қариндош бўлмаган тиллар фраземаларининг антропоцентрик қиёси (ўзбек ва немис тиллари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Урганч, 2023. – 136 б.

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspektdagi gender hamda milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, K. Kristin, Z.V. Korzyukova, V.S. Samarina, Z.M. Ramazanova, V.A. Xoxlova, G.I. Ergasheva, L.E. Xolmuradova, N.Z. Nasrullayeva, M.A. Abduvaxabova, G.S. Qurbonova kabi tadqiqotchilar frazeologik birliklarning lingvomadaniy, gender va lisoniy xususiyatlarini ingliz, nemis, fransuz, rus, o‘zbek tillari hamda ikki til materiali doirasida o‘rganganlar.

Frazeologik birliklarni “hayot” va “o‘lim” leksemalari bilan bog‘liq holda tadqiq etgan V.V. Tarasenko, N.V. Kuznetsova, S.V. Voroboyeva, E. Sereda, N.V. Sharsheva, D.Sh. Karimova kabi olimlarning ilmiy ishlarini alohida ta’kidlash lozim. Ularning tadqiqotlarida “hayot” va “o‘lim” leksemalarining semantik, strukturaviy, etimologik va lisoniy-madaniy jihatlari tahlil qilingan. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari keltirilgan va boshqa bir qator o‘zbek, ingliz hamda jahon tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olindi. Mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, ushbu tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazeologik birliklarning etimologik shakllanish omillariga e’tibor qaratilib, ularning lingvomadaniy jihatlari yoritilgan hamda semantikasi chog‘ishtirma usulda o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning leksik – semantik tizimini chog‘ishtirma tipologik o‘rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya” (ITA-12-09-2019) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Turli tizimli tillardagi “hayot” va “o‘lim” konseptli frazeologik birliklarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlari hamda tillararo ekvivalentlik tamoyillarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turli tizimli tillarda frazeologik birliklarga oid ilmiy-nazariy qarashlarni yoritib berish;

hayot va o‘lim mazmunli frazeologik birliklarning shakllanish manbalari asosida ularning etimologik tasnifini ishlab chiqish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi hayot va o‘lim mazmunli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil etish orqali o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash;

hayot va o‘lim mazmunli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi hayot va o‘lim mazmunli frazeologik birliklar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti. Ingliz va o‘zbek tillaridagi hayot va o‘lim mazmunli frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda chog‘ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy tahlil, shuningdek, statistik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazeologik birliklarning shakllanish manbalari antik mifologiya, diniy dunyoqarash, folklor, xalq tarixi, kundalik turmush tarzi kabi ichki hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi “hayot” va “o‘lim” konseptlarini ifodalovchi frazeologik birliklar tarkibida qo‘llangan atoqli otlar onomastik tasnif asosida antroponim, toponim, etnonim, zoonim, astronim, kosmonim, xrononim, faleronim, geortonim, dokumentonim, ergonim, ideonim, xrematonim va biblionim kabi guruhlarga ajratilib, ularning har bir xalqning tarixiy xotirasi, milliy-madaniy qadriyatlari hamda dunyoqarashi bilan uzviy aloqasi aniq misollar asosida ochib berilgan.

har ikkala tilda “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan life/hayot, live/yashamoq, birth/tug‘ilish, exist/tirikchilik o‘tkazmoq, lifetime/umr, die/o‘lmoq kabi salbiy va ijobiy konnotatsiyalar bilan bog‘liq universaliyalar aniqlangan;

“Hayot” va “o‘lim” konseptlarini ifodalovchi ingliz va o‘zbek frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari chog'ishtirma aspektda tadqiq etilib, ulardagi universal va etnomadaniy semantik komponentlar, milliy obrazlar hamda konseptual metaforalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotning amaliy natijalari ishda olingan nazariy umumlashma va tahlillardan “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi”, “Frazeologiya”, “Lingvomadaniyatshunoslik” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma va o‘quv-uslubiy majmualar yaratishda; inglizcha-ruscha-o‘zbekcha “hayot” va “o‘lim” komponentli frazeologik birliklar lug‘atini tuzishda hamda frazeologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, qo‘llanilgan tahlil metodlarining tadqiqot maqsad va vazifalariga mosligi, tahlilga tortilgan faktik materialning hajmi, nazariy fikr va xulosalarning asoslanganligi hamda ayrim natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” konseptli frazeologik birliklarning etimologiyasi, semantikasi, lingvomadaniy xususiyatlari hamda ekvivalentlik darajasini yoritishga oid nazariy xulosalardan frazeologiya va sohaga oid tadqiqotlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Oliy ta’lim tizimida “Lingvokulturologiya”, “Leksikologiya”, “Qiyosiy tipologiya” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, mazkur fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, shuningdek, magistratura bosqichida “Lingvistik tadqiqot metodlari”, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari” kabi maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalarning chog‘ishtirma tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, shuningdek, qiyoslanayotgan tillarda “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazeologik birliklarni antroponim, toponim, etnonim, zoonim, astronim, kosmonim, xrononim, faleronim, geortonim, dokumentonim, ergonim, ideonim, xrematonim va biblionim guruhlariga ajratish hamda nomlarning har bir xalq tarixi va madaniyati bilan bog‘liqligiga doir mulohazalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan F3-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 14-fevraldagi 04/1-373-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda ularning lingvomadaniyatda namoyon bo‘lish darajasini chog‘ishtirish uchun asos yaratilgan;

turli tizimli tillardagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan life/hayot, live/yashamoq, birth/tug‘ilish, exist/tirikchilik o‘tkazmoq, lifetime/umr, die/o‘lmoq kabi salbiy va ijobiy konnotatsiyalar bilan bog‘liq universaliyalar aniqlanganiga doir fikr-mulohazalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 9-martdagi 04/1-584-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillaridagi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda ularning lingvomadaniyatda namoyon bo‘lish darajasini chog‘ishtirish uchun nazariy-amaliy asos yaratilgan;

frazeologik birliklarning shakllanish manbalari antik mifologiya, diniy dunyoqarash, folklor, xalq tarixi, kundalik turmush tarzi kabi ichki hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishiga doir fikrlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasida “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘smirlar uchun” nomli eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasi “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining 2024-yil 26-fevraldagi 04-36-287-son ma’lumotnomasi). Natijada frazeologik birliklarning antroponim, toponim, etnonim, zoonim, astronim, kosmonim, xrononim, faleronim, geortonim, dokumentonim, ergonim, ideonim, xrematonim va biblionim guruhlariga ajratilishi hamda nomlarning xalq tarixi va madaniyati bilan bog‘liqligi haqida professor-o‘qituvchilar va talabalarga ma’lumot berilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ilmiy ma’ruza ko‘rinishida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 12 tasi respublika va xorijiy ilmiy jurnallar hamda to‘plamlarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va 2 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi va aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi Tadqiqotning birinchi bobi “Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o‘rganishning ilmiy asoslari” deb nomlanadi. Globallashuv davrida frazeologiya muammolari tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois tadqiqotimizda frazeologik birliklarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Til madaniyati, eng avvalo, ilmiy xulosalar va ijtimoiy amaliyot natijalari asosida shakllangan, lisoniy fikrlashning aniqligini ta’minlaydigan til me’yorlari, lug‘at boyligi va frazeologik zaxiradan tarkib topadi. Frazeologiyani har tomonlama chuqur o‘rganish ingliz va o‘zbek frazeologiyasining yetarlicha yoritilmagan qirralarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz va o‘zbek frazeologiyasi leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilindi. Frazeologiya tilshunoslikning boshqa tarmoqlari bilan ham uzviy aloqadadir.

Bizga ma’lumki, frazeologiya haqidagi nazariy ta’limotning yuzaga kelishi Fransuz olimi Sharl Balli nomi bilan bog‘liq. Sh.Balli “**Французская стилистика**” nomli kitobida turg‘un birikmalarni chuqur o‘rganish zarurligini birinchi bo‘lib ilmiy asosladi va uning frazeologik konsepsiyasini yaratdi[6].

Umuman, frazeologiya fanining rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchi davr. XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo‘lga qo‘yilishi M.V.Lomonosov, V.I.Dal, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, F.I.Buslayev, Sh.Balli, A.A.Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Qayd qilish o‘rinliki, birinchi davrda frazeologiya ko‘proq leksikografiya, ya’ni amaliy lug‘atshunoslik ob’ekti bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda ko‘proq FBlarni lug‘atlarda aks ettirish (kodifikatsiyalash), ularning ma’nosini, etimologiyasini izohlash, talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan edi.

Ikkinchi davr. Y.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K.Danilov, G.O.Vinokur, V.N.Derjavin, A.I.Efimov, A.Ya.Rojanskiy, I.E.Anichkov kabi olimlarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlandi va XX asrning 30-50-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrni frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri ham deyish mumkin.

[6] Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1962. – 392 с.

Uchinchi davr XX asrning 60-yillaridan boshlanib hozirgi kunlargacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda yangi metodlarning qo‘llanilishi, frazeologik nazariyaning tez sur’atlar bilan rivojlvanishi va ko‘plab frazeolog mutaxassislarning yetishib chiqqanligi bilan xarakterlanadi[7].

Ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan bir ming besh yuz ellik sakkizchi (1558) yilda frazeologiya termini birinchi marta qo‘llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu terminni ishlatishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng ushbu termini dunyo filologiyasida qo‘llanila boshlandi. Rus tilshunosligida frazeologik iboralarni o‘rganish XIX asrda boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunoslngida esa XX asrning 50-yillaridan o‘rganila boshlandi. Angliyada paremiologik birliklarga bo‘lgan qiziqish o‘rta ingliz davrida (XVI–XVI asrlar), ya’ni *maqol tarzidagi hikmatli iborala*rning oltin davri”da yanada ortdi[8]. Ingliz jamiyatida bu davrga kelib kitob nashr etish jadallashdi. Uzoq yillar mobaynida jamlanib kelgan donishmandlik rasmiy ravishda pand-nasihat maqomini olib, xalq boshqaruvining didaktik quroliga aylandi.

Ingliz tilshunosligida frazeologik birliklar idioma shaklida qo‘llaniladi. Buni quyida keltirilgan tahlillarda ham kuzatishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi idiomalar lug‘ati bir necha marta Angliya, AQSH, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda nashr qilingan. Xorijiy tilshunoslar frazeologik birliklarni “idioma” deb ataydilar va ularni grammatika va leksikologiyaga tegishli deb, ularga “So‘zlarning semantik birikmasi bo‘lib, ko‘pincha sintaktik chegaralangan alohida birlik sifatida qo‘llaniladi[9] - deb ta’rif beradilar. Shunday qarash va “idioma” terminini qo‘llash rus tilshunosligida ham mavjud[10]. O‘zbek tilshunosligida esa G.Salomov ishlarida frazeologik birliklarni idioma[11] shaklida qo‘llanilganligini kuzatishimiz munmkin.

Bizga ma’lumki, *turg‘un birikmalarni, maqollarni* yig‘ish va ularni muayyan sistemalashtirish, o‘rganish ancha oldin boshlangan. XV va XVIII asrlarda yaratilgan eski o‘zbek lug‘atlarida ham frazeologizmlardan ayrim namunalar keltiriladi. Chunonchi, 1759-1760 yillarda yaratilgan Mahdixonning Sangloh lug‘atida *so‘ngi uyqu* kabi frazeologizmlar keltiriladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida A.Starcheskiyning “Спутник русского человеко в Средней Азии” (1878), V.I.Nalivkin, va M.I.Nalivkinaning “Руководство к практическому изучению сартовского языка” ва бошқа lug‘atlarida *мулахиза қылмок, джума намаз* kabi namunalar keltiriladi[12]. Demak, so‘z birikmalari, jumladan, frazeologizmlar lug‘atshunoslik ixtiyorida bo‘lgan, ular hali ilmiy tadqiq etilmagan, faqat amaliy qo‘llanilgan. Leksikografik ishlar so‘z birikmalarini va

[7] Bu haqda qarang: Ройзензон Л.И., Малиновский Е.А., Хаютин А.Д. Очерки по истории становления фразеологии как лингвистической дисциплины. - Самарканд, 1975. – С. 5-70.; Малиновский Е.А. История изучения проблем фразеологии в русском языкознании. - Ташкент: Фан, 1991. – С. 5-92.; Малиновский Е.А.Формирование русской фразеологии и фразеографии. АДД. – Адматы, 1995. – С. 3-52; Малиновский Е.А. Формирование русской фразеологической теории в XX веке. Монография. – Самарканд, 2007. – С. 4 -131

[8] Mieder V.Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs. – Vermont, 1998. – 396 p.

[9] Crystal David. Linguistics.Second edition. Penguin books. – 1990. – 276 p.

[10] Широков О.С. Языковедение. Введение в науку о языках. “Studia Academica”.-М.: Добросвет, 2003. –734 с.

[11] Саломов Ғ. Мақол ва идиомалар таржимаси. - Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1961. - 162 б.

[12] Havola quyidagi manbadan olindi: Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси. Тошкент.: Наврўз нашриёти, 2019. – Б. 26.

frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishda samarali turtki bo‘lgan.

O‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab Y.D.Polivanov ishlarida o‘rtaga qo‘yilgan edi. U rus va ayrim Sharq tillari frazeologiyasini o‘rgandi va shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirdi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, yangi shakllanadigan frazeologiya sohasi leksikologiyaga nisbatan xuddi sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o‘rinda bo‘lishi lozim. “Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda - deb yozgan edi. Y.D.Polivanov, lekin sintaksis so‘z birikmalarining umumiy tillarini, xususiyatlarini o‘rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarning konkret, individual (leksik) ma’no xususiyatlari bilan shug‘ullanadi”[13]. Frazeologiyasiga doir dastlabki ilmiy ishlar esa XX asrning 50-yillar boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh.Rahmatullayev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Husainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin[14]. Mazkur ishlarda o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar akademik V.V.Vinogradovning struktural-semantik tasnifi asosida tahlil etiladi, frazeologik birliklar frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar va frazeologik qo‘shilmalarga ajratiladi. Shuningdek bu ishlarda o‘zbek tilida **yakka so‘zlardan iborat** obrazli iboralar ham mavjudligi ta’kidlangan. Masalan, Sh.Rahmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasida *so‘fi, qiyomat, qiyomatda, oxiratda, latta, tuzlamoq, qovurmoq singari ko‘chma ma’nosi asl, boshlang‘ich* ma’nosidan uzoqlashib, o‘zaro omonimlik darajasiga yetgan yoki asl, to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishini deyarlik yo‘qotib, ko‘chma ma’nodagina ishlatiladigan so‘zlar frazeologik yoki idiomatik so‘zlar deb atalgan edi[15]. O‘zbek tilshunosligi tarixida Sh.Rahmatullayev dastlabki frazeolog olim sifatida beqiyos iz qoldirdi[16]. Shuningdek, M.I.Umarxodjayev[17] B.Yo‘ldoshev[18] va A.Mamatov[19] larning olib borgan ilmiy tadqiqotlari o‘zbek frazeologiyasining rivojlanishida o‘ziga xos ulush bo‘lib qo‘shildi.

---

[13] Поливанов Е.Д. За марксистское языкознание. – М.: 1931. – С. 61-119.

[14] Раҳматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. – М.: 1952. – 16 с. Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимджана. АКД. – Ташкент, 1953. – 19 с. Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Мукими (лексика и фразеология). АКД. – Ташкент, 1956. – 18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. АКД. – Самарканд, 1959. – 18 с.

[15] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Москва, 1952. – Б. 52.

[16] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. – Москва, 1952. – Б. 52. Раҳматулаев Ш Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик). – Тошкент: Фан, 1966. – 264 б. Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б. Раҳматулаев Ш.Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. – 363 б. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек ва рус тилларида фразеологик антонимлар. – Тошкент, 2000. – 32 б.

[17] Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с. Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеографии. – Ташкент: Фан, 1977. – 104 с.

[18] Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. – № 3-4. – Б. 37-42 Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. – Самарқанд: “Сўғдиёна” нашриёти, 1998. – 110 б. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. – 200 б. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти (монография). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – 108 б.

[19] Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 276 б.

Tilshunoslikda Life/hayot va Death/o‘lim leksemalar va ularni frazeologik birliklar bilan bog‘lab o‘rgangan quyidagi V.Tarasenko, N.Kuznetsova, S.Vorobyeva, E.Sereda, N.Shareshova, D. Karimova kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin Jumladan, tadqiqotchi V.Taresenkoning “Концепты “жизнь” и “смерть” в системе языка и сознании разноязычных носителей (на материале фразеологизмов)” nomli dissertatsiya ishida frazeologik birliklarning semantik tasniflari ishlab chiqilib, rus va ingliz tillarida “hayot” va “o'lim” tushunchalarining o‘zagi va periferiyasiga kiradigan xususiyatlarni aniqlangan. Shu bilan, ushbu konseptga oid idiomalar leksikografik jihatdan tahlilga tortilgan[20]. Ingliz va rus tilshunosligi doirasida tadqiqot olib brogan yana bir tadqiqotchi N.Kuznetsov o‘zining “Словообразовательные структуры ядерных лексем концепта “жизнь” (на материале английских и русских народных сказок)” nomli tadqiqot ishida “hayot” tushunchasining konseptual tarkibiy qismini tadqiq qilib, uning semantik va struktur jihatlari, va ushbu leksemaning xalq ertaklaridagi frazeologik birliklar tarkibida kelgan ma’no va mazmuni tahlilga tortilgan[21]. Tilshunos S.Vorobyev esa o‘zining “Репрезентация концептосферы everydaylife в английской лингвокультуре позднего средневековья” nomli tadqiqot ishida o‘rta asr ingliz tilidagi kundalik hayot konseptsiyasining tuzilmalari lingvistik madaniyatning keyingi davrdagi asosiy konseptual qiymat-majoziy belgilarini tavsiflashda birinchi marta og‘zaki, semiotik xususiyatlari o‘rganilgan[22]. E.Sereda o‘zining “Представление концепта “death” в английской фразеологической картине мира” nomli tadqiqot ishida death/o‘lim konseptli frazeologik birliklar semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan[23]. Tadqiqotchi Shareshova Natalya Viktorova esa o‘zining “Когнитивно-метафорическая репрезентация концептуальных структур Life/Жизнь и Death/Смерть в поэтическом дискурсе (на материале поэзии Дилана Томаса и Сильвии Плат)” nomli tadqiqotida she’riy matnlar tahliliga e’tibor qaratgan. Ishda Hayot va O‘lim konseptual tuzilmalarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan individual mualliflarning poetik nutqi doirasidagi konseptual metaforalar va matnlararo rejada ularning o‘zaro ta'siri o‘rganilgan[24]. Tahlillardan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, Life/hayot va Death/o‘lim leksemarini konseptual tizim asosida ularning semantik xususiyatlari, xalq madamiyati bilan bog‘liq jihatlari, xalq ertaklarida ishtirok etgan Life/hayot va Death/o‘lim leksemalarini lingvomadaniy tahlili kabi jihatlari o‘rganilgan.

Bizning tadqiqotimizda esa *Life/hayot va Death/o‘lim* mazmunli frazeologik birliklarni semantik xususiyatlari, ularning ma’no va shakl munosabatlari:

[20] Тарасенко В.В. Концепты “жизнь” и “смерть” в системе языка и сознании разноязычных носителей (на материале фразеологизмов)”. Дисс. ... канд. филол. наук. Кемерово. 2008 – 160 с.

[21] Кузнецова Н. В. Словообразовательные структуры ядерных лексем концепта “жизнь” (на материале английских и русских народных сказок. Дисс. ... канд. филол. Москва, 2010. – 172 с.

[22] Воробьева С. В. Репрезентация концептосферы everydaylife в английской лингвокультуре позднего средневековья. Дисс. ... канд. филол. Наук. Волгоград. 2012 – 182 с.

[23] Середа Е. Представление концепта “death” в английской фразеологической картине мира. Дисс. ... канд. филол. Наук. Санкт-Петербург. 2016 – 184 с.

[24] Шарышова Н. В. Когнитивно-метафорическая репрезентация концептуальных структур Life/Жизнь и Death/Смерть в поэтическом дискурсе (на материале поэзии Дилана Томаса и Сильвии Плат). Дисс... канд. филол. наук. – Волгоград, 2020. – 192 с.

monosemantik, polisemantik jihatlari, ularning etimologik tomonlari, sinonimik va antonimik, omonimik, jihatlari hamda ushbu konseptga doir frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlilga tortilganligi bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida “hayot/life va o‘lim/death mazmunli frazemalarning leksik- semantik xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, ishning bu qismida frazemalarning e’timologik, semantik hususiyatlari, polisemiya va monosemiya hodisalari hamda sinonimik va antonimik jihatlariga e’tiborimizni qaratdik.

Bilamizki, etimologiya juda qadimiy ta’limotlardan bo‘lib u bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Gretsiya, Rim, Mesopotamiya, Misr va Xitoyda ham tilshunoslik fan sifatida shakllanib ulgurmagan bo‘lsa-da olimlar, faylasuf, mantiqshunoslar so‘zlarning tarixini o‘rganishga qiziqqanlar va ularning kelib chiqishiga doir turli farazlarni ilgari surganlar. Tabiiyki, hali tilshunoslik fan bo‘lib shakllanmagan, o‘z metodlari, obyekt va predmetlariga ega bo‘lmagan, shunchaki qarashlar majmui bo‘lganligi, o‘z terminlar va tushunchalar tizimiga ega bo‘lmaganligi tufayli bu kabi murakkab savollarga javob topa olishi dargumon edi. Bu davrda tortishuvlar ko‘proq so‘z yozuv shaklining, ya’ni nomning u bildirgan tushuncha o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga qaratilgan edi. Xaqiqiy ilmiy etimologiya fan sohasi sifatida keyinroq, alohida olingan til oilalari, guruhlari va tillar lug‘at tarkibi haqidagi dastlabki ilmiy xulosalar chiqarilgan paytlarga borib taqaladi. Hozirgi kunga qadar etimologlarning asosiy e’tibori til lug‘at tarkibining asosiy birligi, ya’ni so‘zlarning tarixiga qaratib kelindi. Natijalar esa etimologik lug‘atlar tarzida shakllantirildi. Mazkur faslda tildagi ikkilamchi nominatsiya maxsuli bo‘lmish turg‘un birikmalarning etimologik xarakteristikasini tahlil qilishni vazifa qilib belgilaganligimiz uchun bu masala yanada murakkabroq tus oladi. Chunki turg‘un birikmalar ikki yoki undan ko‘proq elementlardan tashkil topganligi uchun ularning komponentlari bildirgan ma’nolar birikmaning umumiy ma’nosini kelib chiqarishda ishtirok etgan bo‘lishi ham mumkin, ishtirok etmagan bo‘lishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan turg‘un birikmalarning etimologik tahlili ancha murakkab kechadi.

Ushbu frazeologik birliklar turli davrlarda paydo bo‘lgan va hozirda ham , o‘z qo‘llanish darajasini yo‘qotmagan. 22-dekabrdan qishning boshlanishi, Ulug‘ chillaga kirgandan keyin kunlarning uzayishi, qishning 9 - sovuq kunida ayozning tug‘ilib, o‘lishi vaqti 14-martgacha davom etadi va bu bilan bahor fasli xarakterlanadi. Barglarning o‘sishi va kuku qushining o‘tishi bilan (14-martda 22-iyun oralig‘ida) nishonlanadi. Kuz -sarg‘aygan barglar va “qarilar quyoshi” (15-sentyabrdan 22-dekabrgacha) deyishadi. Ushbu kuzgi siklning oxirgi to‘qqiz kuni 20-noyabrdan 23-dekabrga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan va u “Qor quyoshi” deb ataladi. Tadqiqotchilarning fikricha, ular noyabrni “kampirlar oyi” (“qor oyi”) deb atashgan. Bu oylarda inson hayoti (tug‘ilish, o‘sish, kamolot, qarilik, o‘lim), “hayot bahori”, “hayotning kuzi” kabi iboralar shaklida aks etishi qayd etilgan. “Hayotning gullab-yashnashi davri” haqida so‘z yuritilib, ularning tasodifiy, tasodifiy yaratilishi va ishlatilishiga e’tibor berilgan.

Tadqiqotchi N.I.Skoruk amerikaliklar nutqida uchraydigan “*piece of cake*” –

(pirog, tort bo‘lagi) idiomasi haqida alohida to‘xtaladi va amerikalik shoir Ogden Neshaning “Primrose path” she’rida ilk marta “*life's piece of cake*” shaklida qo‘llanilganligini, asosan, **shirin** va **oson hayot** ma’nosida ishlatilganligini ta’kidlaydi. Olim ingliz tilida 25.000 dan ortiq idiomalar mavjudligi va deyarli barchasi o‘zining etimologiyasiga ega ekanligini[25] qayd etgan.

Ingliz tilidagi yana bir *go west*[26] iborasining ma’nosi *o‘lmoq* degan ma’noni anglatadi. Bu iboraning etimologiyasi Britaniya armiyasida qo‘llanilgan. Bu iboraning etimologiyasi birinchi jahon urushi bilan bog‘liq bo‘lib Britaniya armiyasida 1914-1918 yillarda shakllangan.

Ichagini itlar yesin. Qarg‘ish ibora. Odatda harom o‘lgan mollar qishloqning bir chekkasiga chiqarib tashlansa, avvalo bo‘rilar, bo‘lmasa daydi itlar uning qornini yorib, ichak-chavog‘idan boshlab yeyishga kirishadilar. Odamga nisbatan faqat qarg‘ish, yomonlik sog‘inish, norozilik, jabr ko‘rganlik hissiyoti sifatida ishlatiladi. (XIV-XV- asrlarga borib taqaladi).

Yuqoridagi holatlarni umumlashtirib aytish mumkinki, frazeologik birliklarni etimologik jihatdan tahlil qilish azaldan murakkab vazifa bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

“Hayot” va “o‘lim” leksemalari semantik maydon nazariyasi asosida kichik mikromaydonlarga ajratildi hamda ularning frazemalarda ifodalanishi tahlil qilindi. Masalan, ingliz va o‘zbek tillarida life/hayot leksemasi bevosita ishtirok etmagan, biroq mazmunan ushbu semantik maydonni ifodalovchi frazeologik birliklar sifatida Live it up – tirik yurmoq; To exist – dunyoga kelmoq; A place to call your own – yolg‘iz istiqomat qilmoq; Be in the land of the living – mavjud bo‘lmoq; To be awake – tirik bo‘lmoq kabi birliklar, shuningdek, yashab qolmoq, qayta tirilmoq, yo‘qdan bor qilmoq, paydo qilmoq, ato etmoq, hadya etmoq, barpo qilmoq, jon kiritmoq kabi ifodalar ko‘rib chiqildi.

Ingliz va o‘zbek tillarida **Death/o‘lim** mazmunli frazeologik birliklar: *At death's door – dunyodan o‘tmoq; Dead and buried – engak tashlamoq;Dead as a doornail – nobud bo‘lmoq;Bite the dust – dunyodan ketmoq; Breathe your last – ko‘zini yummoq*; *Brush with death – olamdan o‘tmoq*; *Cheat death – olamdan ketmoq*; *Dancing on someone's grave – nafasi tindi*; *Die in a hole – yuragi urishdan to‘xtadi*; *The Big Adios – oxirgi yo‘lga kuzatmoq*; *It's clipped – paymonasi to‘ldi*; *On the wrong side of the grass – mazasi bo‘lmadi*; *Get smoked – jonini jannatga yubormoq; Augered in – jannati bo‘lmoq; Bite the big one – dunyodan ko‘z yummoq; Breathe one's last – dunyodan ko‘zi ochiq ketmoq; Brown bread – vafot qilmoq; Bought the farm – vafot etmoq*; *Cash in one's chips – oradan ketmoq; Check out – qazo qilmoq; Die with one's boots on – halok bo‘lmoq*; *Fall off one's perch – jon bermoq; Go west – shahid bo‘lmoq; Hop the twig – xudoning hukmini bajarmoq; Kick the calendar – xazon bo‘lmoq; Kiss one's arse goodbye – ko‘pga qo‘shmoq; Sleeping with the fishes – suvda qotmoq; Murdered – nobud bo‘lmoq; Disposed of in water – suvga cho‘kmoq. (to go) to meet your maker – qaytish*

[25] Скорук Н. И. Этимология английских идиом и фразеологизмов: их значение и произхождение// Вестник МИТУ – МАСИ № 1/2018. – С. 96

[26]https://www.etymonline.com/word/go%20west

qilmoq; Lose one's life – bandalikni bajo keltirmoq; On one's last legs-bir oyog‘i go‘rda.

Yuqorida tahlil qilingan ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning barchasi “hayot” va “o‘lim” mazmunli frazemalar hisoblansa-da, ularning turli leksik birliklar asosida shakllanganini kuzatish mumkin. Mazkur frazemalar turli semalar asosida yuzaga kelgan. Tadqiqotning ushbu qismida life/hayot va death/o‘lim mazmunli frazeologik birliklar kichik semantik maydonlarga ajratilib, ikki til materiali asosida tahlil qilindi. Masalan, ayrim idiomalarda life/hayot yoki death/o‘lim leksemalari bevosita ishtirok etib, shu semantik doiradagi mazmunni ifodalaydi; ayrim hollarda esa bu leksemalar qatnashmagan bo‘lsa-da, boshqa birliklar orqali mazkur ma’no anglashiladi. Ingliz tilidagi At death’s door iborasida death (“o‘lim”) komponenti qatnashsa, o‘zbek tilidagi dunyodan o‘tmoq iborasida “o‘lim” leksemasi bevosita qo‘llanmagan. Bu holat ikki tilning mavzuiy maydonidagi farqlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarda xalqlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi yuqori darajada aks etadi. Ularning kelib chiqishiga asos bo‘lgan obrazlar ko‘pincha xalq realiyalari, tarixi, madaniyati va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday frazemalarda xalqning milliy ruhi, obrazli-emotsional tafakkuri va mentaliteti namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik idiomalarning boshqa tillarda so‘zma-so‘z mos muqobillari mavjud emas; tarjimada ular semantik jihatdan yaqin ekvivalentlar yoki kalkalash vositasida beriladi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, “o‘lmoq” va “o‘ldirmoq” semantik maydonidagi leksik hamda frazeologik birliklar o‘zbek tilida ingliz tiliga nisbatan ko‘proq uchraydi. O‘zbek tilidagi misollar rang-barang bo‘lib, ingliz tiliga tarjimada kalkalash yoki ekvivalent tanlash orqali ifodalanadi.

Ma’lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug‘at boyligini tashkil etuvchi til birligi hisoblanadi va ular til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo‘ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda *polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya* kabi hodisalarga uchraydi.

Ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham polisemantik xususiyatga ega bo‘lgan frazeologik birliklar tadqiqot natijasida kuzatildi. Masalan, o‘zbek tilidagi *ko‘z yummoq* iborasi esa uch xil ma’noga ega:

1) **bilib turib o‘zini bilmaslikka solmoq**;

2) **olamdan o‘tmoq, qazo qilmoq, o‘lmoq**;

3) **e’tiborsizlik bilan qaramoq**

Ingliz tilidagi *be living on borrowed time* frazeologik birligi ikki ma’noni anglatadi:

1) **kutilmagan qisqa vaqt ichida yashamoq**;

2) **o‘limga yaqin bo‘lmoq** kabi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tilshunoslikda sinonimiya va antonimiya hodisalari keng tadqiq qilingan bo‘lsa-da, frazemalarning ma’nodoshligi masalasida yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Ingliz va o‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nisbatan kam. Shunga ko‘ra, tadqiqotning ushbu qismi frazeologik birliklarning sinonimik va antonimik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlandi.

Ingliz tilida: ***Go for a Burton*** iborasining *to give up the ghost, go of the hooks, go to glory, go to one's last account to die, hand in one's checks, go west, take the ferry, pass away, to die with your boots on* kabi sinonim frazeologik birliklari mavjud.

